

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



Tabiiy fanlar fakulteti
Geografiya yo'nalishi II^Akurs talabasi
Karimova Sitoraning
O'lkashunoslik fanidan tayyorlagan

REFERATI



Buxoro viloyati toponimiyasi va uning hududiy xususiyatlari

Buxoro viloyati toponimiyasi ya'ni geografik nomlar O'zbekiston toponimiyasining, qolavyersa O'rta Osiyo toponimiyasining bir qismi sanaladi. Bu geografik nomlarning asosiy qismini tashkil etadi. Hozirgi o'zbek, tojik, turkman, qozoq tillari yordamida osongina tushunish mumkin.

Toponimlar hozirgi ma'muriy yoki etnografik chegaralarni tan olmaydi ya'ni tojikcha nomlar o'zbeklar yashaydigan manzilgohlarda yoki umumiy olganda O'zbekistonda, o'zbekcha nomlar esa Tojikistonda uchrashi mumkin.

Buxoro viloyati toponimlarini o'rganish chog'ida albatta o'zbek va tojik tilini bilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Har bir hududda joy nomlarining vujudga kelishi shu joy hamda uning aholisini o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqadi. Buxoro viloyati respublikamizning ana shunday o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan hududlaridan biridir. Viloyat hududi qadimdan aholi manzilgohi sifatida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Hududdagi joy nomlarning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni geografik nuqtai- nazardan quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Tabiiy geografik omillar
2. Ijtimoiy iqtisodiy geografik omillar
3. Siyosiy geografik omillar

Tabiiy geografik omillar bu viloyatning tabiiy geografik o'rni, tabiiy sharoiti, geologik tuzilishi, relefi, gidrografik xususiyatlari, yer osti va yer usti boyliklari o'simlik va hayvonot dunyosi kabilardir.

Ma'lumki Buxoro viloyati hududi qurg'oqchil iqlimli (arid) cho'llardan iborat bo'lib Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan. Zarafshon va uning tarmoqlari oqib o'tgan tor palasada Buxoro vohasi shakllangan. Viloyat tabiatning ana shu xususiyatlari uning joy nomlarida ham o'z aksini topgan. Ikkinchi komponenti cho'l, ko'l, ariq, ro'd, (ro'dak) bo'lgan joy nomlari ko'plab uchraydi. Shuningdek hudud relefi (tepa, tal, chuqur, qir, komponentli) o'simlik va hayvonot dunyosi (yantoq, tol, jiyda, yulg'un, patta, komponentli) joy nomlari ko'plab uchraydi. Xullas viloyat tabiati va tabiiy sharoiti uning joy nomlarida yaqqol aks etgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar bu aholi, uning turmush tarzi, urf-odatlari hamda kasb-kori kabilarni o'zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari aholining tili, milliy tarkibi, dini kabilar ham shunday omillar sirasiga kiradi.

Viloyatda qishloq aholisi aholining katta qismini tashkil etadi. Qishloq turmush tarzi va urf-odatlari joy nomlarida o'z aksini topgan. Aholining tabaqalanishini aks ettiruvchi joy nomlari xususan xo'ja, boy, so'fi tyerminlari asosida vujudga kelgan joy nomlari ko'pchilikni tashkil etadi. Ma'lumki butun o'zbek xalqi uchun xos bo'lgan kasb-korlar, hunarmandchilik tarmoqlari Buxoro xalqi uchun ham xosdir. Masalan: zargarlik, zardo'zlik, pichoqchilik, temirchilik, kulolchilik va shunga o'xshash bir qancha kasb-korlar bilan shug'ullangan aholi yashagan joylar ularning kasb-kori nomi bilan Temirchi, Kulolon, Qassobon, Zargaron, Halvopazon, Zarangari, Pichoqchi deb atalgan.

Aholining milliy tarkibi, tili va dini bilan bog'liq holda vujudga kelgan joy nomlari ham muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki Buxoro viloyati hududi aholi

manzilgohlarining ko'pchiligi tojik tilidagi nomlar hisoblanadi. Bu avvaldan tojik va o'zbek xalqlari bu hududda birga yashab kelganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari o'zbekning 92 bo'li urug'lari nomlari bilan ataladigan joy nomlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular ichida Do'rman, Chandir, Orlot, Ming, Nayman kabi urug'lar nomlari bilan ataladigan joy nomlari ko'pchilikni tashkil etadi.

Siyosiy-geografik omillarga davlatlarning vujudga kelishi, urushlar, bosqinlar, migrastiyalar kabi omillarni kiritish mumkin. Ma'lumki Buxoro O'rta Osiyoda vujudga kelgan ko'plab davlat birlashmalarining poytaxti hamda madaniy ma'rifiy markazi vazifasini o'tab kelgan. Jumladan buxorxudotlar, somoniylar, qoraxoniylar, shayboniylar, ashtarxoniylar, mang'itlarning Buxoro amirligi kabi davlatlarning poytaxti vazifasini o'tagan. Har bir sulola joy nomlarida ham o'z izlarini qoldirgan. Bundan tashqari urushlar, bosqinlar hamda migrastiyalar ham joy nomlari vujudga kelishida siyosiy geografik omil sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan: arab bosqinidan keyingi davrda Arab, Arabxona, Arablar, Arabcha, Arabmahalla, Arabqishloq kabi toponimlar mug'ul bosqinidan keyin Mo'g'ulon, Mo'g'ulcha, Mo'g'ul va mo'g'ullarning urug'lari nomi bilan ataladigan bir qancha joy nomlari vujudga kelganki bu joy nomlarining vujudga kelishida siyosiy geografik omillar etakchi rol o'ynagan.

O'rta Osiyoga turkiy xalqlar kelishidan oldin hozirgi hududimizdagi vohalardagi yashagan mahalliy xalqlar sharqiy eron tillarida so'zlashganlar. Bu esa hududdagi forsha-tojikcha nomlar tub nomlar ekanligini anglatadi.

Arablarining uzoq vaqt davomida yurtimizda hukmronlik qilishi yunon-makedon istilochilaridan farqli o'laroq joy nomlarida o'z aksini topgan. Albatta bunda o'sha davrda arab tilining adabiy til bo'lib xizmat qilishi ham katta rol o'ynagan.

Arabcha nomlar orasida diniy e'tiqod bilan bog'liq nomlar alohida o'rin tutadi. Ayniqsa valilar, payg'ambarlar nomlari joy nomlari tarkibida ko'plab uchraydi. Bundan tashqari rabot (arabcha ribot) nomi ko'p uchraydi. Arablarning o'zlari bosib olgan hududlarda qurgan harbiy tayanch nuqtalari rabotlar deb atalgan. Jumladan, Poykand yaqinida 1000 dan ortiq rabot bo'lgan. Bu rabotlarda mahalliy va turkiy xalqlarning hujumlariga qarshilik ko'rsatadigan qo'shinlar turgan. Hozir ham Raboti Qalmoq, Rabot, Ta'libot, Rabotizohid, Rabotcha kabi nomlar uchraydi.

Viloyat tarixiy toponimiyasi uchun o'ta qimmatli asarlardan biri Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asaridir. Kitob 934-944 yillarda arab tilida yozilgan. 1128-1129 yillarda forschaga qisqartirilib tarjima qilingan, noma'lum muallif kitobga mo'g'illar bosqinchiligigacha bo'lgan voqealarni qo'shgan. Kitob 1966 yilda o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Bu asarda O'rta Osiyoning VIII-XII asrlardagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti yoritilgan. Shu bilan birga eski Buxoro va uning yaqinidagibir qancha geografik nom tilga olingan. Shunisi qiziqki, XI-XII asrlardagi ko'pgina geografik nomlar hozirgacha saqlanib qolgan. Shulardan Nur (hozirgi Nurota), G'ijduvon, Romitan, Shopurkom, Karmana qadimiy nomlardir. Varaxsha (Faraxsha), Poykand Buxorodan ham keksa shaharlardir, deb yozadi Narshaxiy. Buxoroning Numijkat, Bumiskat, Madinat-us-sufriya ("Mis shahri"), Madinat-tujjor ("Savdogarlar shahri"), Foxira degan nomlari bo'lgan. Atamasi qadimdan Buxoro atrofida iste'molda bo'lgan va hozir ham

anchagina geografik nomlar tarkibida uchraydi: Kom Zar, Komi Akka (Zarafshoning bir nomi), Haramkom va hokazo.

Shopurkom arig`i Yeron shahzodasi Shopurning nomi bilan atalgan ekan. Shopur Buxorxudotdan (o`sha paytda Buxoro hokimlari shunday atalgan) yer olib, qasr qurgan va Vardona qishlog`ini barpo qilib, ariq qazib keltirgan. Shopurkom “ Shopur arig`i” deganidir. Shopur so`zi o`z navbatida ikki so`zdan iborat: shoh va pur ya`ni o`g`il.

Kom Narshaxiy o`zining “Buxoro tarixi” asarida nur degan joy nomini tilga olgan. Uni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar, deb yozadi Narshaxiy. Nuri Buxoro, ya`ni Buxoro Nuridan boshqa Nurlar ham bo`lgan.

Viloyatda uchraydigan ayrim joy nomlari juda qadimda paydo bo`lgan. Masalan, Narshaxiyning “Buxoro tarixi” kitobida tilga olingan bir qancha nomlar Buxoro atroflarida hozirgi kunda ham uchraydi. Romitan, Shofirkon, G`ijduvon kabi nomlar ana shular jumlasidandir.

Buxoro xonligi va amirligi hujjatlarida, vaqfnomalarida, vasiqalarda ko`plab joy nomlari, shuningdek toponimlarning kaliti bo`lib xizmat qiladigan talay geografik, ijtimoiy-siyosiy va boshqa matyerialar uchraydiki, bundy boy manbalarni o`rganmasdan turib, viloyat toponimikasi haqida fikr yuritish ko`ngildagidek samara byermaydi.

XIV asrda yashagan Buxoro shayxi Sayfiddin Boxarziyga mansub vaqf hujjatlarini o`rgangan O.D.Chexovich ushbu hujjatdagi ko`pgina nomlar hozirgi vqtda ham Buxoro atrofida uchrashini ta`kidlagan.

Mo`g`ullarning kirib kelishi O`rta Osiyo toponimiyasini yanada murakkablashtirib yubordi. Mo`g`ulcha atamalar O`rta Osiyo turkiy xalqlari leksikasidan va toponimiyasidan mustahkam o`rin olgan. Masalan to`qay atamasi mo`g`ulcha atama hisoblanadi.

Ruscha nomlar temir yo`l stanstiyalarining qurilishi, rus dehqonlarining ko`chirib kelinishi bilan vujudga kelgan ya`ni ruslar o`zlari yashab kelgan yoki o`zlariga tanish bo`lgan joy nomlari o`zlari bilan ko`chirib olib kelingan.

Sho`rolar davrida paydo bo`lgan geografik nomlarning aksari dohiylar, sho`ro davlati va kommunistik partiya rahbarlari, partiya shiorlaridan iborat mafkuraviy nomlar edi.

Aynan mustaqillik yillarida bu “qizil” toponimlar bekor qilinib, joylarning tarixiy nomlari tiklandi va sof xalqona toponimlar paydo bo`ldi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko`rinadiki, viloyat toponomiyasi bir necha davrlar mahsuli bo`lib, har bir davrning o`ziga xos toponimlari mavjud.

Ma`lumki, ko`pgina toponimlar zaminida oddiy atamalar, turdosh so`zlar yotadi. Shu bilan birga bir qancha joy nomlari ayrim shevalargagina xos so`zlardan tarkib topgan. Professor E.D.Polivanov turkiy tillarda hech birida shevalar o`zbek tilidagichalik ko`p emas, deb yozgan edi. O`zbek shevalarida shunday so`zlar uchraydiki, deb davom etgan edi olim, ularning bir qismi adabiy tilda yoki boshqa shevalarda muqobil yo`q bo`lib, bir qismining esa boshqa so`z bilan ifodalanadigan variantlari mavjud.

Viloyat toponimiyasining xarakterli xususiyatlaridan yana biri unda etnotoponimlarning, ya'ni turli millat, xalq, elat, qabila va urug`-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlarning nihoyatda keng tarqalganligidir.

Viloyat joy nomlari tizimida etnotoponimlar katta o'rin egallaydi. Urug`, qabila, millat, xalq nomlari ya'ni etnonimlar asosida yaratilgan manzilgohlarning atoqli otlari etnotoponimlar deb yuritiladi. Etnotoponimlar tildagi eng qadimgi qatlamlardan hisoblanib, uzoq tarixiy davrlarda shakllangan holda ma'lum xalqning tarixini, etnik tarkibini o'rganishda va aniqlashda muhim manbadir. Etnotoponimlar xalqlarning tarqalish chegarasini o'rganishda g'oyat qimmatlidir.

Buxoro viloyatida Chandir degan bir necha qishloq bor. Xalq buni "chandir go'sht" deb izohlaydi. Aslida Chandir turkmanlarning bir urug'idir. Zarafshon vodiysining etagida anchagina turkmanlar yashaydi.

Joy nomlari xususan mikrotoponimlar (**Mikrotoponimlar**-(yunoncha-"mikro"-kichik) o'zida jar, tepalik, qir, buloq, quduq, hovuz, jilg'a, soy, ariq, dala, dasht o'tloq, mahalla, guzar, ko'cha, singari mayda ob'ekt nomlarining atoqli otlarini o'zida mujassamlashtiradi.) ichida antrotoponimlar, ya'ni kishilarning ismlari, familiyalari hamda laqablari bilan ataladigan toponimlar son jihatdan etnotoponimlardan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Ba'zi bir kishi ismlarini bilib olish oson emas. Kishi ismlari orasida o'simlik va hayvon nomlari uchraydi.

Viloyat hududidagi joy nomlarini paydo bo'lishiga ko'ra turlarga ajratib o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, hududiy tarqalishiga ko'ra eng ko'p tarqalgan joy nomlari etnotoponimlar, kasb-korga oid nomlar, joy xususiyatini bildiruvchi nomlar, fitotoponimlar, ijtimoiy-siyosiy tyerminlar bilan ataluvchi joy nomlari hamda gidronimlardir.

Viloyat hududini toponimik areal sifatida ajratib joy nomlarini ilmiy asosda o'rganish sobiq sho'rolar hatto chor Rossiyasi Buxoro amirligini o'z protektoratiga aylantirgan davrlardan boshlangan. Rus olimlaridan N.Xanikov, B.Y.Vladimirstev, S.Y.Malov, V.A.Livshis, I.M.Dyakonov, K.V.Kaufman kabilarning asarlarida viloyatdagi joy-nomlari tarixi, etimologiyasi haqidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Mahalliy olimlardan H. Hasanov, S. Qoraev, A.Muhammadjonov kabi olimlarning asarlarida Buxoro viloyati va uning ayrim joy nomlari haqidagi fikrlar mavjud.

1984 yilda Buxoro viloyati toponimiyasi bo'yicha S.N.Nayimov «Оунокомы Бухарской области» mavzuida nomzodlik dissyertastiyasini himoya qilgan. 1998 yilda BuxDU olimlari A.Sh.Jumaev, I.T.Muhammedov, A. Hamroevlar asosan Buxoro viloyatidagi joy nomlarini o'zida mujassamlashtirgan «O'lkamizdagi joy nomlari» izohli lug'atini nashr ettirdilar. Viloyat toponimiyasining o'rganilmagan qirralari hali juda ko'p, ular o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Quyida biz viloyatdagi ayrim joy nomlarining qisqacha izohiga to'xtalib o'tamiz.

Buxoro - qadimiy, tarixiy yodgorliklarga boy bo'lgan shahar. Narshaxiy Buxoroni Numijkat, Bumiskat, Madinat us-Sufriya, ya'ni "Mis shahar", Madinat o't-tujjor, ya'ni "Savdogarlar shahri" degan nomlarning borligini aytadi: "Buxoro" degan nom u nomlarning hammasidan ma'qulroqdir, Xuroson shaharlaridan birontasi ham bunchalik ko'p nomga ega emas. Bir hadisda Buxoro nomi Foxira bo'lib olgan. Chunki "qiyomat" kuni Buxoro shahri o'zida shahidlarning ko'pligi bilan faxr qiladi.

Xalqda Buxoro-Buhora degan rivoyat ham bor. Buxoro so'zining etimologiyasi aniq emas.

Buxoro - sanskritcha "Vixara" so'zidan olingan bo'lib, "ibodatxona" ma'nosini bildiradi degan fikr bor. V.A.Lishisning fikricha, Vixara so'zi So'd tilida "parxar" shaklida kirgan. Hofiz Tanish yozishicha, "Buxoro" so'zi buxor so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'tparastlar tilida "ilm makoni" demakdir. Bu talaffuz uyg'ur va xitoy butparastlarining tiliga yaqindir, chunki ular sig'inish joylari bo'lgan ma'budalarni "buxor" deb ataydilar.

Buxoro shahrining nomi aslida "Lumijkat bo'lgan (Hofiz Tanish Buxoriy" Abdullanoma, 1 jild T. 1966, 273 bet)

Buxoro toponimi yolg'iz emas. XI-XII asrlarda Balx shahri atrofida Navbehor darvozalari bo'lgan. Navbehor "Yerta bahor" emas, balki "yangi ibodatxona" demakdir.

Buxoro shahri etimologiyasi bilan Hindistondagi Bihar shtatining etimologiyasi birdir. (V.A.Nikonov). V.V.Shostakovich Sibirdagi Buxoro nomli daryoni tilga oladi.

Buxoro yaqinida Dul Buxoro (Jul Buxoro) nomli qishloq bo'lgan. Buxoro viloyatlaridan biri Buxorxitvar (Najar-xatvar) deb atalgan (Buxoro okimlari "buxorxudot" deyilar edi.) Bekobod yaqinida Buxorolik, Janubiy Uralda Buxorcha degan soy, Qashqadaryo viloyatida (Kitob, G'uzorda) Buxorto'por, Buxori, Xo'jabuxori nomli mahalla, joylar bor. Shunday qilib, Buxoro komponentli toponimlar bir anchadir. Qadimgi turkiy runik yozuv (Kulteginga bag'ishlangan yodgorlikda) Vuharak degan joy nomi uchraydi. Buqaraq, ulis -Buxoro edi. Bu joy nomiga S.Y.Malov bimalol Buxoro deb izoh byergan.

Akademik B.Ya.Vladimirstev o'sha yodgorlikda So'g'd nomi ham uchrashini aytadi va Buhara haqiqatan Buxoro degan so'z bo'lib, "o'yrat" (oltoy) aramonlik eposlaridan birida buxarin chyerik, ya'ni "Buxoro qo'shinlari" degan so'zlar uchraydi, deb yozadi (B.Ya.Vladimirstev, "Geograficheskie imena orxonskix nadpisey, soxranivshiesya v mongolskom".)

Ba'zi bir tadqiqotchilar Buxoro so'zi sanskritcha emas, balki eftalitcha bo'lsa kyerak, deb hisoblaydilar. Bunda ular so'g'diy yozma hujjatida Buxoro so'zining bosh harfi "P" bilan yozilganini dalil qilib keltiradilar. (V.A.Livshist, K.V.Kaufman, I.M.D'yakonov "O drevney sogdiyskoy pismennosti Buxary". Vestnik drevney istorii, №-1, 1954, 150-163 betlar).

Buxoro o'zining ko'p asrlik tarixi mobaynida bir necha bor ko'tarilish va inqiroz davrlarini boshidan kechirdi, istilolarining qurboni bo'ldi.

Moddiy madaniyat va san'atning shunchalik xilma-xil va turli davrga oid yodgorliklari to'plangan bunday shaharlar juda oz. Shahar sharq me'morlari yaratgan nodir arxitektura yodgorliklari bilan butun dunyoga ma'lumdur.

Buxoroning birinchi tarixchilari yozib oldirgan afsonalardan birida Buxoro qal'asi Siyovush tomonidan qurilgan deb aytiladi. Siyovush qadim zamonlarda ilohiy shaxs sifatida hurmatlangan. Keyinga davrlarda yaratilgan she'riy afsonaga ko'ra, Yeron shohi va turk ayolining farzandi bo'lgan Siyovush Turon shohi Afrosiyob tomonidan o'ldirilgan.

VII asrda shahar yuqorida ta'kidlanganidek; so'g'dcha nom bilan Numijkat deb atalgan bo'lsa, VII-VIII asrlarda esa Puxo, Buxo, Buge deb ham nomlangan.

Afshona-Buxoro viloyati Peshko' tumanidagi qishloq. Abu Ali ibn Sino tug'ilgan joy. Narshaxiy asarida Afshina shaklida keltirib, «Katta shahriston va mustahkam hisorga egadir. Bir qancha qishloqlar unga mansubdir. Bu yer duo qabul bo'ladigan joy» deb ta'riflagan. qishloq nomi cho'lda o'sadigan "afshon" degan giyoh nomidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin.

Bodiyai Xurdak-Karmana shahrining qadimgi nomlaridan biri. Narshaxiyning yozishicha, «qadim vaqtlarda Karmanani «Bodiyai Xurdak» («Ko'zacha») deb ataganlar» (26 a, 95 b.). Haqiqatdan ham bodiya so'zining bir ma'nosi «ko'za», «umon» demakdir. Shuningdek, uni: «cho'l, dasht, biyobon» ma'nolari ham bor. Demak, Bodiyai xurdak «Kichik cho'l», «Kichik dasht» degan ma'noga ega. Joy nomlari uy-ro'zg'or buyumlaridan ko'ra ko'proq tabiiy geografik atamalar bilan nomlanganligini e'tiborga olsak, keyingi ma'no haqiqatga yaqinroq bo'ladi.

Vardonze - Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi qishloq. Narshaxiy «Bu katta bir qishloq bo'lib, kuxandizga, katta va mustahkam hisorga ega. U qadim vaqtlardan podshohlarning turar joylari bo'lgan, lekin hozirda unda podshoh o'tiradigan qarorgoh yo'q. Vardona Buxoro shahridan qadimroq barpo bo'lgan, uni Shoxpur Malik (Shopur-Xusrav-II (531-578) yoki Xusrav II (590-628)ning o'g'lini ko'zda tutilsa kyerak) bino qilgan» deb yozadi .

Qadimgi qo'rg'on yaqinidagi qishloq hozir Ko'hna Vardonze deb ataladi. Toponim so'g'dcha «var» so'zi asosida tuzilgan bo'lib, aholi yashaydigan, to'rt tomoni devor bilan o'ralgan istehkomni bildiradi. «qo'rg'on, podshohlarning maxsus qarorgohi» ma'nosiga ega.

Vobkent-Buxoro viloyatidagi shahar, shu nomli tuman markazi. O'g'uz shevalarida **vob** yoki **vaob** so'zi «bo'z yer, quruq yer» degan ma'noga ega. Vobkent-«bo'z yerdagi qishloq, aholi manzili» demakdir.

Galaosiyo-Buxoro viloyatidagi shahar. Buxoro tumanining markazi. Galaosiyo ikki so'zdan olingan bo'lib, Gala-qishloq, «Osiyo-tegirmon» yoki «tegirmonli qishloq» ma'nosini anglatadi. Xalq etimologiyasiga ko'ra, tojikcha «alla, osiyo-alla tegirmoni» so'zidan olingan deyiladi.

Jilvon-Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi qishloq, kanal va cho'l nomi. Buxoro amirligidagi mansab va martabalardan biri xalqni o'g'ri, qaroqchi va yo'lto'sarlardan himoya qiluvchi jilbon mansabi bo'lib, joy nomi ham shundan kelib chiqqan bo'lsa kyerak.

Jondor-Buxoro viloyati Jondor tumani markazi. Qo'rg'on ma'nosida:

- a) Tirik mavjudot, jonivor;
- b) O'rta Osiyoda Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davrida yasovulboshi, Shurot (gvardiya)ning mashhur kishilari;
- v) Qurol-aslaha egasi «do'st va madadkor» deyilgan fikrlar bor.

Jo'ybor-Buxoro shahrining g'arbidagi mavze. XII asrda Ahmadxon hukmronligi zamonida obod qilingan. Jo'ybor-«ariq bo'yi» ma'nosini bildiradi. Jo'ybor xo'jalari katta mavqega ega bo'lgan.

Jo'yi Mo'liyon-Buxoro shahrining shimol tomonidagi ariq va uning atrofidagi ekin yerlari nomi. Narshaxiyning yozishicha, Jo'yi Mo'liyon yerlari qadim vaqtlarda Tug'shodaning mulki bo'lib, u o'z farzand va kuyovlarining har biriga taqsim qilib byergan edi. Marhum Amir Ismoil Somoniy bu yerlarni xalifa al-Musta'in ibn al-

Mo'tasimning lashkarboshisi bo'lgan Hasan ibn Muhammad ibn Tolutdan sotib oldi. Amir Ismoil Jo'yi Mo'liyonda saroylar va bog'lar barpo qilib, uning ko'proq qismini Mavoliylarga vaqf qildi. Shunday qilib bu yerlar Jo'yi Mavoliyon deb atalib keyinroq Jo'yi Mo'liyon bo'lib ketgan. Mavoliy-aslida «Mavlo» (Xoja, janob, valiy va okazo)ning jami .

Kogon-Buxoro viloyatidagi shahar. 1888 yildan boshlab Zakaspiy temir yo'li (Krasnovodskdan Samarqandgacha) bo'yida, Kogon qishlog'i o'rnida yuzaga kelgan. Nom qoraqipchoqlarning **kovon** urug'i bilan bog'liq bo'lsa kyerak. Chunki Kogon tumanida qipchoqlarning turli urug'i yashaganlar. Bundan tashqari "ko'k ekuvchilar" degan talqini ham bor.

Losha-Buxoro viloyati Buxoro tumanidagi qishloq. O'tmishda Buxoro sharidan O'rtacho'l massiviga boriladigan yo'l yoqasida xarob, tashlandiq ko'l bo'lib, vaqt o'tishi bilan uning qurigan o'rnida qishloq barpo bo'lgan. Losha-xarob, aftoda ma'nosiga ega.

Olot-Buxoro viloyatidagi shahar va shu nomli tuman markazi. Buxoro tumanida **Olotxona** qishlog'i ham bor. Olot-Arlot qabilasining dialektal talaffuzidir. Ayrim manbalarda Olat-asboblar, yaroqlar ma'nosida ham keltiriladi.

Peshko'-Buxoro viloyatida shu nomli tumandagi aholi markazi. Peshko' nomi aslida «Peshi Ko'y» bo'lib, «katta yo'l ustidagi joy» ma'nosini anglatgan. Peshko' tarixi bevosita Buxorodan Xorazm va Yeronga yo'nalgan buyuk ipak yo'li bilan uzviy bog'liqdir. "Peshi Ko'h" – tog` oldi bo'lishi ham mumkin.

Romitan-Buxoro viloyatidagi shu nomli tuman markazi, shahar. Navoiy viloyati Navoiy tumanida ham shu nomli qishloq bor. Tojikiston Respublikasida ham Romitan degan joy nomi mavjud. Romitan atamasini Narshaxiy "Romtin", Muhammad Solih esa "Razmitin" shaklida keltiradi. Asrimizning 20-yillarigacha bu aholi manzili Laqlaqa deb yuritilib, Rometan (Xayrobod) tumanining markazi bo'lgan. Aslida Rometan deganda qo'rg'oni Rometan tushunilgan. Muhammad Narshaxiy qo'rg'oni Rometan haqida «Bu bir katta ko'handizga ega va mustahkam bir qishloq bo'lib, Buxorodan qadimiyroqdir» deb yozgan edi. Romitan nomini **Rometi** degan urug` nomi bog'liq degan fikrni ham ayrim mualliflar keltiradilar. Ba'zi tarixiy manbalarda esa **Romi** so'zi harakatdagi otliq askar, nayzador ma'nosiga egaligi keltiriladi. Shunga asosan «askarlar turadigan joy», «harbiy manzil yoki qo'rg'on» ma'nosi ham bo'lishi mumkin. Yana "Roh"-yo'l, "miton"-qal'a, qo'rg'on, «yo'l bo'yidagi qo'rg'on» ma'nosida bo'lishini ehtimoli ham yo'q emas. Chunki bu qishloq buyuk ipak yo'li bo'yidagi manzillardan biri bo'lgan. Ayrim mualliflar Romitan va Romish nomlarini «Rom»-shodlik va xursandlik bilan bog'laydilar.

Soktari-Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi qishloq. Xalq etimologiyasiga ko'ra, qishloq xalqi o'tmishda o'qimishli va dono o'tgan bo'lib, yuzta pirlari bo'lgan ekan. Shuning uchun ham qishloqni «Sadpiri»-«yuzta piri bor joy» deyilgan. Sadpiri vaqt o'tishi bilan Soktariga aylangan deyiladi. "Qiyos-ul lug'otda" «suta» so'zi tayrilmo va yiilmo ma'nosida keltiriladi. Qishloqni Zarafshon bo'yida joylashganligini hisobga olib, uning asl ma'nosi "So'tari"-sirpanchi joy, daryo bo'yidagi suvlik joy bo'lishi mumkin. Atamaning ikkinchi ismi-tari, tar-o'l, suvlik demakdir.

Torob- Buxoro viloyati Jondor tumanidagi qadimiy qishloqlardan biri. Narshaxiy bu qishloqni Tarovcha deb atab, Nur, arorund, Vardona, Safna va Isvona qishloqlariga

o'xshash hali Buxoro vujudga kelmasdan oldin paydo bo'lganligini qayd qiladi. Qishloq xalqi 1238 yilda Mahmud Torobiy boshchiligida mo'g'ul bosqinchilariga qarshi ko'targan ozodlik kurashi bilan mashhur. Xalq etimologiyasiga ko'ra, Torob-«arining kichraygan, toraygan joyi» ma'nosiga ega. "Qiyos-ul lug'ot"da "Tarova"-motam paytlarida kiyiladigan rangli chopon deb keltirilgan.

Shofirkon-Buxoro viloyatidagi tuman markazi, shahar. Joyning asl nomi Xoja Orifi Mohitobon bo'lib, Naqshbandiya tariqatining XIII asrda yashab o'tgan mashhur namoyandasi Abduxoliq G'ijduvoniyning to'rtinchi xalifasi nomi bilan atalgan. Xoja Orif tug'ilgan paytda joyning nomi Revgar qishlog'i bo'lganligi uchun u kishini ham Xoja Orif Revgariy deb ataganlar. Shofirkonni to'g'ri atamasi Shopurkom bo'lib, Narshaxiyning yozishicha, Sosoniylar sulolasidan bo'lgan Kisroning (Xisrav I (531-5780 yoki Xisrav II (590-628) o'g'li otasiga achchiq qilib bu viloyatga kelgan; Uning nomi Shopur edi. «Pur» Yeron tilida «o'g'il» demakdir. Buxorxudotdan bu mavzeni so'rab olib, ariq chiqarib uni «Shopurkom» deb atadi. Shopurkom-«shopur arig'i» demakdir.

G'ijduvon-Buxoro viloyatidagi tuman markazi, shahar. tarixiy manbalardan Narshaxiyning "Buxoro tarixi"da Muqanna qo'zg'oloni voqealari (775-776 yil) munosabati bilan tilga olinadi. Xalq etimologiyasiga ko'ra "g'uji-devon"-«Devlar to'planadigan joy», «g'uji-dehon», «bir to'p qishloq» singari ma'nolari bor deyiladi. Yana bir varianti Kishtuvon shaklidagi atamasi bo'lib, kishti-ekin eekuvchi, dehqonchilik qiluvchi, ekin ekiladigan paykal singari qator ma'nolari bor. G'ishtuvon dehqonlar manzili ma'nosida bo'lsa kyerak.

G'ishti-Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi qishloq. Xalq etimologiyasiga ko'ra, quyidagi ma'nolari bor:

1. Tabiiy jihatdan qulay joyda joylashganligi, xo'jalik tarmoqlarini rivojlanib, joyni jannatmakonga aylanganligi uchun behishti-«jannatdek joy» deb atalgan. Behishti so'zi vaqt o'tishi bilan o'zgarib bishti, hishti, g'ishti bo'lgan;

2. Qishloqda g'isht xumdonlari bo'lib, obi g'ishtlar pishirilgan. shuning uchun qishloq shunday atalgan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Nazarov I.K., Allayorov I. Buxoro geografiyasi. Buxoro, 1994, 67 b.
2. Barakaev J., Haydarov Y. "Buxoro tarixi" Toshkent, "O'qituvchi", 1991, 144 bet.
3. Muxammadjonov A. "Qadimgi Buxoro" Toshkent, "Fan", 1991, 42 bet.
4. O'zbekiston SSR Atlasi. M.; GUGK, 1982 y.
5. Qoriev M. Va boshqalar. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent, "o'qituvchi", 1981, 240 bet.
6. Buxoro viloyati yillik statistik to'plam 1995-2005, Buxoro, 2006, 244 bet.